



## FUTBOLCHILARNING MAYDONDAGI UMUMIY XARAKATLARI

**<sup>1</sup>Doston Rustam o'g'li**

Termiz davlat Pedagogika instituti. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi yo'naliishi 2-kurs magistranti,

**<sup>2</sup>Beknazarov Asqarali Jumanazarovich.**

Termiz davlat Pedagogika instituti. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi yo'naliishi  
2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450267>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 15<sup>th</sup> December 2022

Online: 16<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

### ABSTRACT

*Futbolchilar maydonda texnik va taktik xarakatlarni bexato bajara olishlari,bu raqib jamoaning kuchli, kuchsiz malakasiga, o'yindagi taktikasiga, chempionat davomida ko'rsatayotgan o'yiniga bog'liq.*

Futbolchilar maydonda texnik va taktik xarakatlarni bexato bajara olishlari,bu raqib jamoaning kuchli, kuchsiz malakasiga, o'yindagi taktikasiga, chempionat davomida ko'rsatayotgan o'yiniga bog'liq.

Futbol maydonida futbolchilarning darvozabon, ximoyachi, yarim ximoyachi, xujumchilarga bo'linishi bu futbol qonunidir. Qisqa qilib aytganda xar bir futbolchi o'z ampulasida maydonda ishtirok etadi. Bir o'yinda har bir futbolchi maydondagi ampulasiga qarab texnik va taktik harakatlarni bexato bajarishi kerak. Bunday harakatlarga to'pga zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, aldamchi harakatlar, fintlar, to'pni yon chiziqdan tashlash va boshqa harakatlar.

Ko'pgina futbol mutaxassislari futbolchilarning ampulasiga qarab maydondagi texnik va taktik xarakatlarini taxlil qilishgan.Unda biz quyidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bir o'yin davomida futbolchilar tomonidan bajarilgan xarakatlar soni: darvozabon 70

ga yaqin, qanot ximoyachilari 73 ta, o'rta ximoyachilar 50 ta, yarim ximoyachilar 103 ta va xujumchilar 90 ga yaqin. Har bir o'yin o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bir o'yinda jamoa kuchli raqibga qarshi maydonga tushsa, ikkinchi o'yinda esa kuchsiz jamoaga qarshi maydonga tushishlari va uchinchi o'yinda jamoa teng kuchli jamoa bilan musoboqalashishlari mumkin. Bu holat esa futbolchilarni tayyorgarligiga ham ta'sir etadi. Bunday vaziyatda murabbiy o'z shogirtlarini kuchi va bilimlarini to'g'ri baholashi, keyingi bo'ladigan o'quv-mashg'ulot jarayonini samaraliroq bo'lishiga sababchi bo'ladi. Murabbiy o'z shogirdlarini tayyorgarlik darajasini obyektiv baholash uchun musoboqa faoliyatini nazorat qilgan holda o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishi mumkin bo'ladi.

Texnikaning miqdori. Sportchi tomonidan o'yin davomida bajargan umumiylar harakatlar soni, M.A.godikning (30,31) kuzatishlari shuni ko'rsatganki, yuqori malakali futbolchilarning umumjamoaviy



TTX optimal miqdorlari 600-800 TTX to'g'ri kelgan. Lekin bu ko'rsatgich qanday raqib bilan o'ynaganligiga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan kuchsizroq jamoaga qarshi o'ynalsa,bu ko'rsatgich o'z o'zidan oshishi aniq chunki asosan bunday vaziyatda o'yin holatini o'z qo'liga oladi, katta tashabbusga erishish yo'li bilan to'p bilan muomila qilish vaqtি ko'payadi va o'z o'zidan ITTX miqdoriy ko'rsatgichlari o'sishi tabiiy aksincha bo'lishi ham mumkin. O'ziga nisbatan kuchli raqibga qarshi maydonga tushishganda aksari hollarda tashabbus boy beriladi, to'p bilan muomila qilish vaqtি kamayadi va ITTX miqdoriy ko'rsatgichlari pasayib ketishi mumkin va 400-500 ITTX tashkil qilishi mumkin.

Himoyachilarda ko'pgina TTX o'z darvozalari yaqinida bajarishadi va raqiblar bu zonada nisbatan kamroq qarshilik ko'rsatishadi aksincha hujumlarni raqibning darvoza yaqinidagi harakatlari katta qarshilik bilan kutib olinishi va bemalol to'p bilan hujumchilarga yo'l qo'yimasligi bilan izohlanadi.xujumchilarga to'pni olib yurish ,raqibni aldash,to'p uzatish xarakatlari qiyin kechadi (35,41,57).

Ko'pgina mutaxasislarning fikricha futbolning dastlabki yil uchrashuvlarida ximoyada bir,ikki futbolchigina xarakatlanishgan.Keyingi yillarda futboldagi qonun – qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ximoyachiga bo'lgan talab ortdi.

Mualliflar jamoaning barcha ximoyachilar jismonan baquvvat,bo'ydon bo'lishi,maydonni ko'ra bilishi,ayniqsamarkaziy ximoyachi faol o'yin ko'rsatishi,yondosh ximoyachilarning o'yindagi xolatlarni boshqarib turish lozimligini ta'kidlaydi.

Raqib futbolchilari tomonidan uzun to'p uzatishda,ximoyachilar sakrab to'pga egalik qilish yoki uni maydon tashqarisiga yuborishlari shart,balandlatib uzatilgan to'pni olishda,ximoyaching sakrovchanlik darajasi yaxshi rivojlangan bo'lishi darkor. Bizga ma'lumki futbol musoboqasida,o'yin jarayonida qaysi bir jamoaning to'pga ko'proq egalik qilishi,jamoani g'alabaga yaqinlashtiradi.ko'pgina futbol mutaxasislari futbolchilarning to'p bilan bajargan xarakatlarini o'rganishgan. Futbolchilarning to'p bilan xati-xarakatlari quyidagicha belgilanadi:to'pni to'xtatish jamoadoshlariga uzatish ,to'pni olib yurish,darvozaga zarba berish,fint ishlatish va boshqa xarakatlar. R.I.Nurimovning kuzatishicha yarim ximoyachilar maydonda eng ko'p 100-110 marotaba to'p bilan muomilada bo'lishadi.Boshqa mutaxasislarning (21,23,25,38) o'z kitoblarida xujumchilarga oid fikrlarni yozishgan.ularning ta'kidlashlaricha xujum deganda to'p ixtiyorida bo'lgan jamoaning raqib darvozasini zabit etish uchun qilinadigan xarakatlarni uyushtirish tushuniladi.

Mualliflarning (45,57,58,59) etirof etishlaricha xujum xarakatlarini bajarish uchun,futbolchilar texnik va taktik bilimlarni yaxshi egallagan bo'lishlari kerak. Raqib jamoaning ximoyasini yorib o'tish uchun futbolchilar to'pni olib yurish va aldab o'tishdan foydalanishadi. Bir qoncha olimlar o'z tadqiqot ishlarida ximoyachilarning boshqa ampulada xarakat qiladigan futbolchilardan ko'proq to'p bilan muomilada bo'lishini aniqlab ko'rsatib o'tishgan.

Xozigi zamон futbolida o'yin usullari takominlashib futbolchilarning o'yin xarakatlari mukammalashib bormoqda.futboldagi yangi va samarali



usullarning paydo bo'lishi futbolchilarning xarakatlari yuksak bo'lishini talab etmoqda.

Bir qancha futbol olimlari va murabbiylari Y.AMorozov,A.P.Lobonovskiy o'z ishlarida futbolchilarning o'yinlari to'p bilan va to'psiz xarakatlarini tekshirishgan ilmiy tadqiqot yillari olib borishgan.Bizga shu narsalar ma'lumki,futbolchining maydondagi asosiy xarakatlariga yugurish,sakrash,burilish,xarakatdan keskinlashish,to'xtash,to'p bilan xarakatlar,yon chiziqdan to'p tashlash,aldamchi xarakatlar,padkat tashlash va raqib bilan kurashishlar kiradi.

#### 1.2. O'quv mashg'ulot sharoitidagi yuklamalarning taqsimlanishi.

Futbolchilarning jismoniy,texnik va taktik tayyorgarliklari o'zgarishlarni aniqlash uchun control sinovlar,testlar va meditsina ko'rklari uchun rejalashtirib bo'lingandan keyin,qolgan kunlar turlicha davom etadigan va turli jadallikda o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun taqsimlanadi.

Jadalligiga ko'ra mashg'ulotlar katta,o'rtacha,kichik nagruzkali mashg'ulotlarga bo'linadi.Mashg'ulotlarni biror bir jadallik darajasiga o'tkazishlar quyidagilarga ya'ni:

- A) Mashg'ulotlarning xarakteri va davomiyligi;

- B) Mashqlar orlig'idagi dam olish intervallarining davomiyligi va uning xarakteriga.

- V) Oldingi mashg'ulotlar va musoboqalardan keying mashg'ulot va dam olishning davomiyligi;

- G) O'yinchilarning shaxsiy xususyatlariga ;

- D) Tevarak-atrofdagi muxit sharoitlariga;

- E) Mashg'ulotlarning maqsadi va meyyoriga,

- J) Mashq bajargandan keyin tiklanish jarayonini qancha davom etishiga amal qilinadi.

Futbolchilardagi sport yuklamalari xajmining o'zgarishi mashg'ulot va musoboqalarning sonining o'zgarishi,ularning doimiyligi ma'lumotlarga qarab kuzatiladi sport yuklamalarining jadalligi esa,yuklamalar miqdori (katta,o'rtacha,kichik) bo'yicha kuzatiladi.

Malumotlarni taxlil qilish o'yinchilar mashg'ulotlarining yuklamalarini taqsimlashning prinsipal sxemalarini tuzishga imkon beradi. Yillik siklning boshida yuklamalar xajmi asta sekin oshiriladi, keyin esa jadallahadi shundan so'ng borgan sari kamayib boradi.Mashg'ulotlar boshlang'ich yuklamalar jadalligi to'xtamay oshib boradi va bu deyarli butun yillik sikl mobaynida davom etadi va faqat musoboqa davrining yakunlovchi fazasidagina kamayadi.

Musoboqa davrining ikkinchi yarmi boshlanishi bilan mashg'ulotlar jadalligi O'zining eng yuqori nuqtasiga yetadi. Keyinchalik futbolchilarning tobora charchab borishini xisobga olib musobaqalar jadalligi sekin-asta kamaytiriladi. Bunda o'yinchilarga vaqtivaqt bilan yuklama berish mashqlar jadalligini juda muhimdir.

Musoboqalar va ularning soni musobaqalarning kalendarini rejasiga muvofiq ravishda rejalashtiriladi, bunda ularning o'tkazish muddatlari va qiyinligi xisobga olinadi. O'rtoqlik musobaqalari qiyinlik darajasiga qarab quyidagicha rejalashtiriladi: Tayyorgarlik davrida-musobaqalar ahamiyatining asta sekin oshib borishni xisobga olib, musoboqalar davrida futbolchilarning mashq ko'rganlik holatiga qarab: o'tish davrida-musobaqalar ahamiyatining asta sekin kamayishini hisobga olib.



Barcha musoboqalar yillik siklda oylar bo'yicha taqsimlanadi dam olish esa musoboqalarning soni va qiyinligi,mashg'ulotlarning xajmi va shiddati xamda o'yinchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab rejalashtiriladi.

Texnikani egallash shuni anglatadiki, futbolchi uchun zarur bo'lgan harakat malakalari o'zlashtiriladi, takomillashtiriladi hamda mustahkamlanadi. Buning natijasida ularni o'yinda, to'p uchun kurashish paytida qo'llash imkoniy yuzaga keladi(27,30,31).

Taktika har doim ham muhim ahamiyatga ega. Futbol texnikasi arsenalinining ko'payishi, o'yinchilar jismoniy tayyorgarligining o'sishi, o'yin qoidalari hamda tizimining o'zgarishi, yanada takomillashib borayotgan trenirovka sikli o'yinni ongli ravishda tashkil qilishda amaliy rejalar, izlanishlar, yangilanishlarga keng yo'l ochib berdi. O'yin maydonida kechadigan strategik kurash, hujum va himoya o'rtasidagi olishuv, yanada yangi va kutilmagan taktik fikrlarni, yangiliklarni yuzaga keltiradi. Ular, o'z navbatida, texnik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, o'yin qoidalari hamda tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy-ruhiy qobiliyatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik, albatta, futboldagi yangi izlanishlarga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatib kelmoqda(13,19,21).

Futboldagi boshqa taktik omillarning o'zaro bir-biriga ta'siri, yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligi nuqtai nazaridan, eng birinchilardan hisoblanadi. O'yindagi "boshqa omillar" deganda quyidagilar tushuniladi;

a) jamoa va o'yinchilarning texnik malakalari, ularning jismoniy qobiliyatlar;

b) jamoa o'yinchilarining o'yinda bir-birini yaxshi tushunish darajasi, o'yinni bilish, jamoa o'yinchilarining uyg'unligi;

v) o'yinchilarning aqliy (intellektual) darajasi;

"Mayda" omillar ham muhim ahamiyatga ega;

a) o'yindagi kuch, raqibning kutilayotgan taktik rejali to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) o'yin qoidalarini bilish;

v) jarohat olish, o'yindan chetlatish va boshqa narsalar tufayli jamoa tarkibining qisqarishi;

g) o'yinchilarning almashtirilishi;

d) o'yin joyi, xususiyati, maydon holati va ob-havo sharoitlari;

e) ushbu matchning ahamiyati, turnir jadvalidagi holat.

Taktik tayyorgarlik vazifalari quyidagicha ham aniqlanishi mumkin;

1. o'yinga ta'sir etuvchi bir nechta omillar va vaziyatlar taktik rejaga kiritilishi lozim, ya'ni jamoa uchun matchning oldindan o'ylangan taktik rejasiga o'yinchilarning bilimlari va qobiliyatlariga mos darajada tuzilishi zarur.Misol. O'smir jamoalardan birida ba'zi o'yinchilar va butun jamoaning ish qobiliyati uzoq vaqt mobaynida tebranib turgan edi. O'yinchilar charchamagunga qadar ularning o'yindagi kayfiyati juda yaxshi, jamoa o'yin rejasiga muvofiq o'ynaydi, lekin o'yinchilar charchagan zahoti, xatolar ustiga xatolar yuzaga keladi, kayfiyat yo'qoladi va o'yin betartib, tarqoq holda kechadi hamda o'yin rejasiga barbod bo'ladi.

2. o'yinga ta'sir ko'rsatuvchi omilar darajasini oshirish o'ylangan o'yin rejasining bajarilishiga yordam berishi lozim. Oldingi misolga asoslanib taxmin qilish mumkinki, o'ylangan o'yin rejasini bajarish davomida texnik, taktik, amaliy va nazariy mashg'ulotlar jismoniy sifatlarni



takomillashtirishda ko'proq qo'llanilishi lozim.

3. mashg'ulotlar davomida o'yinga ta'sir ko'rsatuvchi bir nechta omillar o'rtasida shunday o'quv-tayyyorgarlik muvofiqlik bo'lishi lozimki, u berilgan davr ichida eng muhim omil yoki omillarga asosiy e'tibor qaratish zarur. Bu erda nafaqat yil davomida rejalashtirilgan mashg'ulotlar tarkibiga rioya qilish zarurati, balki trenirovkalar paytida erishilgan yutuq, mumkin bo'lgan pasayish yoki to'xtab qolishni sezish hamda o'z vaqtida ushbu vaziyatni tuzatish nazarda tutiladi. Aynan Shu erda o'zaro ta'sir ko'rsatish tamoyilini qo'llash yaxshi amalga oshirilishi mumkin.

4. taktik o'rgatish va o'yinchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy hamda ruhiy farqlarni hisobga oladigan individual mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim.

Taktik tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar;

1) taktik malakalar, jismoniy qobiliyatlar, aqliy va emotsiyal sifatlarni takomillashtirish.;

- 2) o'yinni (uning alohida lavhalari, o'yindagi qarorlarni) takomillashtirish;
- 3) o'zin tizimlariga o'rgatish, ularni yod olish;
- 4) matchga tayyorlanish.

Malakali futbolchilarning texnika malakalarini rivojlantirish amaliy mashg'ulotlar davomida muhim o'rinnegallaydi. Amaliyotdan ma'lumki, yosh futbolchilarni texnika usullariga o'rgatish natijalari bir xilda emas. Tafovut texnika usullarining o'yinchilar tomonidan qaytarzda egallanishi va qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Shu narsa aniqlanganki, bo'sh zARBAGA ega bo'lgan o'yinchilar to'pni qabul qilib olish, uni olib yurish va aldashlarda yuqori texnikani namoyish qiladilar, kuchli zARBAGA ega bo'lgan futbolchilar esa ko'pincha bu usullarni yomon bajaradilar. Turli xildagi aldamchi harakatlarni yaxshi o'zlashtirganlar esa bu borada jamoaga yakka kurashlarda yutib chiqadilar.

## References:

1. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Т.,-2002г 168с
2. Акрамов Р.А. Особенности управления тренировочным процессом футболистов в условиях жаркого климата "Футбол", Ежегодник, М.,-1983г. 183с
3. Курбанов З.А. Организация учебно-тренировочного процесса футболистов в условиях Узбекистана. Учебное пособие. Т.,-2000г. 85с
4. Лопачев Ю.Н. Азбука кожаного мяча. Т.,-1984г. 64с
5. Лопачев Ю.Н. Келинг тўп тепамиз. Т.,-1988г. 178с
6. Махкамжонов К.М., Саломов Р.С., Саркисян Р.С. Футбол ўйин техникаси. Т.,-1999г. 154-160с